

**TRANSCHEGARAVIY DARYOLAR SUVIDAN FOYDALANISHNING  
XALQARO-HUQUQIY JIHATLARI**

**Ubaydullayev Hojiakbar Fayzullo o‘g‘li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*“Xalqaro huquq va inson huquqlari” yo‘nalishi*

*magistratura bosqichi talabasi*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishning xalqaro-huquqiy asoslari, suv resurslarini boshqarish mexanizmlari hamda ularning huquqiy tabiati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xalqaro odat huquqi va universal konvensiyalarda mustahkamlangan adolatli va oqilona foydalanish, zarar yetkazmaslik, suv resurslaridan birgalikda foydalanish, hamkorlik qilish, oldindan xabardor etish hamda ma’lumot almashish tamoyillarining mazmuni ochib beriladi. Bundan tashqari, daryo havzasi boshqaruvi, qo‘shma komissiyalar, monitoring tizimlari va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish institutlarining amaliy ahamiyati yoritiladi. Markaziy Osiyo tajribasi, xususan Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv taqsimoti masalalari alohida ko‘rib chiqiladi. Maqolada xalqaro tajriba asosida transchegaraviy suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *transchegaraviy daryolar, xalqaro suv huquqi, adolatli foydalanish, zarar yetkazmaslik, suv diplomatiyasi, hamkorlik, suv boshi davlatlari, to‘g‘on-inshootlar, energetika va mudofaa, daryo havzasi boshqaruvi, mintaqaviy daryolar, xalqaro konvensiyalar.*

Yangi asrda suv resurslariga egalik qilish nafaqat ekologik yoki iqtisodiy boylik, balki strategik xavfsizlik omili sifatida ham e’tirof etilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining muntazam ortib borishi, dunyo iqtisodiyotining o‘sishi, sanoatlashtirish, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarining kengayishi va chuchuk suv zaxiralarining tobora tugab borishi transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishni xalqaro huquqning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Mazkur suv manbalari orqali milliardlab insonlar o‘zlarining suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi. Bugungi kunda yer yuzida 310 ga yaqin transchegaraviy daryolar mavjud bo‘lib, ushbu daryolar yer yuzi quruqligining qariyb yarmiga teng qismini sug‘oradi. Azaldan insoniyat chuchuk suv havzalari, katta daryolar bo‘yida o‘zining ilk sivilizatsiyalarini barpo etgani ham bejiz emas. Insonning suvga bo‘lgan doimiy ehtiyoji, kundalik hayotida suvning o‘rni jahondagi eng birinchi va qadimiy sivilizatsiyalarni vujudga keltirdi. Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Hindiston kabi ilk

sivilizatsiyalar Nil, Dajla, Furot, Xuanxe, Yantszi, Gang daryolari bo‘yida paydo bo‘ldi.

*Transchegaraviy daryo* atamasi haqida so‘z borar ekan mazkur atamaning ma‘nosini tahlil qilib ko‘rishimiz mumki. Nazariy manbalarga ko‘ra transchegaraviy daryo deyilganda ikki yoki undan ortiq davlat hududidan oqib o‘tadigan, yoki bevosita ularning chegarasini kesib o‘tuvchi yirik daryolar tushuniladi. Bu turdagi daryolarning o‘ziga xos yana bir jihati shundaki, daryo oqib o‘tgan yoki kesib o‘tgan davlatlarning mazkur daryolar suvidan foydalanishda umumiy hamkorlikka amal qilishi, va bu foydalanish daryo oqib o‘tgan boshqa davlatlarning manfaatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi lozim. Misol uchun daryolarning geografik tuzilishi, ularning oqimi, tashkil etuvchi manbasini tahlil qilar ekanmiz, ba‘zi daryolarning boshlanish nuqtasi baland tog‘ tizmalaridagi muzliklarning erishi va irmoqlarning qovshilishi natijasida vujudga kelishini hisobga oladigan bo‘lsak (Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar singari), ushbu muzliklar manbai joylashgan davlatlar suv boshi davlatlari deb ataladi. Nafaqat, muzliklar, ba‘zi daryolarning boshlanish manbalari mavsumiy yog‘ingarchilik va bir nechta kichik daryo suvlarining qo‘shilishi natijasida vujudga keladi. Bunda ham suv boshi davlatlar ya‘ni daryo qayerdan boshlanishi suv boshi davlatlarning daryo resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Transchegaraviy daryolarning bir nechta davlatlar hududidan o‘tib borishini inobatga olar ekanmiz, ularning suvidan foydalanish bo‘yicha daryo oqimida joylashgan davlatlarning imkoniyatini ham tahlil qilishimiz lozim. Chunki, amaliyotda bu kabi muammolar xalqaro huquqda bir necha bor katta muhokamalarga olib kelgan va odat huquqi hamda transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish bo‘yicha bir nechta xalqaro hujjatlarning qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Ushbu daryolar kesib o‘tgan davlatlar uning resurslaridan adolatli va oqilona, hamkorlikda foydalanishi lozim. Yuqori oqimdagi davlat tomonidan yirik gidrotexnik inshoot qurilishi, suv ombori tashkil etilishi yoki suvni ko‘p miqdorda sug‘orishga yo‘naltirilishi quyi oqimdagi davlatlarda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli transchegaraviy suv resurslari ustidan mutlaq suverenitet konsepsiyasi zamonaviy xalqaro huquqda tobora cheklanib, uning o‘rnini hamkorlikka asoslangan yondashuv egallamoqda. Bundan tashqari, global iqlim isishi, sanoatlashuvning jadal rivoji, aholining o‘sib borishi, qishloq xo‘jaligining yangi yerlarni o‘zlashtirilishi natijasida transchegaraviy daryolar suviga talabni oshirib bormoqda. Yer yuzidagi jami suv manbalarining 2,5 foizigina chuchuk suv hisoblanadi. So‘nggi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yildan yilga chuchuk suv manbalari ham kamayib bormoqda. Biz ushbu maqolada e‘tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan eng muhim jihatlardan biri shuki, suv resurslari yer yuzida bir tekisda taqsimlanmagan. Ba‘zi davlatlarda chuchuk suv manbayi sifatida transchegaraviy daryolarning o‘rni juda muhim. Nafaqat sanoat, aholi ehtiyoji uchun, balki

dehqonchilik, chorvachilik sohasi, gidroenergetika, navigatsiya kabi sohalarda ushbu daryolarning strategik ahamiyati juda muhim. Misol uchun, Markaziy Osiyo kabi sug‘orma dehqonchilikka asoslangan mintaqalarda suv resurslari dehqonchilik, chorvachilik kabi aholining muhim mashg‘ulotlari uchun juda zarur hisoblanadi. Transchegaraviy daryolar yer yuzida turli mintaqalarda turlicha vazifani bajarishi mumkin. Misol uchun, Yevropa davlatlarini kesib o‘tgan Dunay, Reyn kabi daryolar nafaqat aholining ichimlik suviga bo‘lgan talabini, gidroenergetika manbai vazifasini balki, davlatlar o‘rtasida kemalar qatnovi uchun ham muhim kommunikatsiya yo‘lagi vazifasini ham bajaradi.

Transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishning xalqaro-huquqiy jihatlari, eng avvalo, davlatlar manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash zaruratidan kelib chiqqan. Daryo yoqasida joylashgan davlatlarning suvga bo‘lgan ehtiyojini to‘g‘ri baholash, suv resursidan adolatli va oqilona foydalanish, insoniyat va tabiat ehtiyojlari alohida inobatga olinishi zarur. Chunki suv oqimi tabiatan chegaralarni tan olmaydi va bir davlat hududida boshlangan daryo boshqa davlatlar iqtisodiyoti, ekologiyasi va aholisi hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Ba‘zi qishloq xo‘jaligi va dehqonchilik rivojlangan davlatlar yoki, elektr energiyasini ishlab chiqarishda daryolarning potensialiga bog‘lanib qolgan davlatlar bor bo‘lib, daryolar ushbu davlatlarning iqtisodiyotini harakatga keltirib turuvchi drayver vazifasini bajaradi. Shu sababli xalqaro huquq transchegaraviy daryolar bo‘yicha davlatlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi maxsus tamoyillar tizimini shakllantirgan. Quyida xalqaro huquqda transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishda tan olingan prinsplarning tahlilini ko‘rishimiz mumkin.

Daryolar suvidan *adolatli va oqilona foydalanish prinsipi*. Ushbu prinsip xalqaro huquqda **1997-yilgi BMT Konvensiyasining 5-moddasida** mustahkamlangan bo‘lib, mazkur moddaga muvofiq, daryolar bo‘yida joylashgan yoki transchegaraviy daryolar kesib o‘tgan har bir qirg‘oqbo‘yi davlat shu daryolarning suv resurslaridan adolatli va oqilona tarzda foydalanish huquqiga ega. Lekin aynan mana shu prinsipning mutlaq emasligi kelgusida daryolar suvidan foydalanishda ba‘zi kelishmovchiliklarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Chunki, daryolar suvidan foydalanishda geografik sharoit, aholining ehtiyoji, davlatlarning iqtisodiyoti suvga qanchalik bog‘liqligi darajasi, ekologik talablar, alternativ resurslar va boshqa davlatlarning qonuniy manfaatlari inobatga olinishi lozim. Misol tariqasida ko‘rishimiz mumkinki, Afrika qit‘asida joylashgan dunyoning eng uzun daryosi Nil havzasida Misr va Sudan davlatlari uzoq yillardan buyon o‘zlari amal qilib kelgan tarixiy foydalanish tamoyiliga tayanib kelgan. Biroq, bugungi kunda Efiopiya **“Grand Ethiopian Renaissance Dam”** loyihasi orqali xalqaro huquqda qayd etilgan suvdan foydalanish huquqini ilgari surmoqda. Ushbu holat adolatli foydalanish prinsipi qanday murakkab muzokaralarni talab qilishini ko‘rsatadi. Chunki, har bir

qirg‘oqbo‘yi davlat suv resurslari miqdorini, cheklanganligini hisobga olmay, undan foydalanish huquqi borligini talab qilib o‘z manfaatlarini himoya qilishi mazkur prinsipning mohiyatan chegarasi aynan qayerda tugashi kerakligi haqidagi savolni o‘rtaga tashlaydi. Agar davlatlar o‘z ehtiyojidan tashqari, iqtisodiyot va energetika zaxiralarini ko‘paytirish maqsadida daryolar suvidan foydalanishi ushbu prinsipning kamchiliklarini ko‘rsatib beradi. Chunki, yildan yilga aholining o‘sib borishi, va resurslarga bo‘lgan talabning muntazam ortishi har bir davlatning daryo suvidan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda.

Yana bir muhim tamoyillardan biri *sezilarli zarar yetkazmaslik majburiyati* hisoblanadi. **1997-yilgi Konvensiyaning 7-moddasiga** muvofiq, davlatlar o‘z hududida amalga oshirilayotgan faoliyat natijasida boshqa davlatlarga jiddiy zarar yetkazilishining oldini olishi shart. Bu majburiyat davlatlarning suvdan foydalanishi natijasida yetkazishi mumkin bo‘lgan ekologik zarar, suv sifatining yomonlashuvi, daryo oqimining keskin kamayib ketishi, qurg‘oqchilik yuzaga kelishi, qishloq xo‘jaligiga zarar yetkazilishi, gidroenergetika inshootlarining qurilishi natijasida xavf-xatarning vujudga kelishi kabi holatlarni ham qamrab oladi. Misol uchun, Kanada va AQSh o‘rtasidagi **Trail Smelter** arbitrajida ko‘rilgan sud ishida daryo suvining ifloslanishi bo‘yicha murojaat ko‘rib chiqilgan va keyinchalik mazkur sud ishi mazkur tamoyilning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur amaliyot bo‘yicha shakllangan yondashuv keyinchalik transchegaraviy daryolarning suvidan foydalanish zarar yetkazmaslik majburiyatining umumiy prinsip sifatida rivojlanishini ta‘minladi. Mazkur qarorga ko‘ra, bir davlat o‘z hududidan boshqa davlatga zarar yetkazuvchi faoliyat yuritishga yo‘l qo‘ymasligi belgilab qo‘yildi.

Uchinchi tamoyil *hamkorlik qilish va ma‘lumot almashish majburiyati*. Transchegaraviy daryolarni samarali boshqarish faqat o‘zaro axborot almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Suv hajmi, muzliklar holati, qurg‘oqchilik xavfi, ifloslanish darajasi, yangi loyihalar bo‘yicha texnik ma‘lumotlar muntazam ravishda almashilishi lozim. Bu daryolarning potensialini aniqlashda, resurslar hajmini doimiy monitoring qilishda, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda ko‘plab mintaqalarda qo‘shma komissiyalar tashkil etilgan. Masalan, Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi 1960-yilgi **“Indus Waters Treaty”** doirasida Doimiy Komissiyasi faoliyat yuritadi. Siyosiy keskinliklarga qaramay, ushbu shartnoma o‘nlab yillar davomida ishlayotgan eng barqaror suv bitimlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Garchi Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi doimiy keskinliklarning saqlab qolinganligiga qaramay, suv bo‘yicha erishilgan shartnomaviy hamkorlik saqlanib qolaveradi.

To‘rtinchi muhim jihat *oldindan xabardor etish va maslahatlashuv mexanizmi* hisoblanadi. Unga ko‘ra, agar bir davlat transchegaraviy daryoga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan to‘g‘on, kanal, GES yoki irrigatsiya loyihasini

boshlamoqchi bo‘lsa, u daryolar suvidan foydalanayotgan davlatlarni oldindan xabardor qilishi va muzokara olib borishi lozim. Chunki, xalqaro huquqda belgilanganidek, daryolar suvidan foydalanadigan davlatlarning manfaatlarini chetlab o‘tib, o‘zboshimchalik bilan harakat qilib bo‘lmaydi. Bu tamoyil nizolarning oldini olishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, Lotin Amerikasidagi ko‘plab havzalarda yangi gidrotexnik inshootlar qurilishi bo‘yicha oldindan konsultatsiya amaliyoti qo‘llaniladi. Bu bilan daryolarga to‘g‘on, yirik suv inshootlari qurishdan avval loyihani amalga oshirayotgan davlat transchegaraviy daryo kesib o‘tgan davlatlar bilan muhokamaga kirishadi va loyihaning kelajak istiqbollari va daryo suviga ta’siri muhokamaga qo‘yiladi.

Xalqaro huquqda transchegaraviy suv resurslarining huquqiy tabiati yuzasidan turli nazariyalar mavjud. XIX-XX asrlarda ayrim davlatlar tomonidan ilgari surilgan *mutlaq hududiy suverenitet nazariyasiga* ko‘ra, davlat o‘z hududidagi suv resurslaridan istalgan tarzda foydalanish huquqiga ega deb qaralgan. Mazkur yondashuv tarixda “Harmon doktrinasi” nomi bilan mashhur bo‘lib, u 1895-yilda AQSh va Meksika o‘rtasidagi Rio-Grande nizosi doirasida tilga olingan. Biroq zamonaviy xalqaro huquq ushbu konsepsiyani to‘liq qabul qilmaydi, chunki u boshqa davlatlarning qonuniy manfaatlarini inkor etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, davlatlar o‘z hududidan o‘tgan daryolar suvini o‘z ehtiyojlariga ko‘ra istalgan maqsadlarda foydalanishi mumkin. Ushbu doktrinada keltirilgan yondashuv yuqorida sanab o‘tilgan va xalqaro huquqda tan olingan prinsiplarga to‘liq mos kelmaydi. Chunki, har bir davlat daryolar suvidan o‘zi istagan maqsadda foydalanishi, boshqa davlatlarning suv resursiga bo‘lgan talablarini cheklashi, daryo resurslarining adolatsiz foydalanishi, tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu nazariyaga qarama-qarshi ravishda *cheklangan hududiy suverenitet nazariyasi* shakllandi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir davlat o‘z hududidagi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish huquqiga ega, biroq bu huquq boshqa davlatlarga sezilarli zarar yetkazmaslik, oqilona foydalanish va hamkorlik qilish majburiyatlari bilan cheklanadi. Mazkur tamoyil bugungi xalqaro suv huquqining asosiy poydevori hisoblanadi. Professor **Stephen McCaffrey** ta’kidlaganidek, “xalqaro suv oqimlari bo‘yicha huquq davlat suvereniteti va umumiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni topishga qaratilgan tizimdir”<sup>64</sup>. Daryolar bir nechta davlatlarning hududidan oqib o‘tishini inobatga olar ekanmiz, professorning fikrlari bugungi xalqaro maydonda qanchalik to‘g‘ri ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlarda professor **Patricia Wouters** transchegaraviy suv huquqini “suv

<sup>64</sup> McCaffrey S., *The Law of International Watercourses*, Oxford, 2019, p. 87

25-Aprel, 2026-yil

diplomatiyasining yuridik ifodasi” deb ataydi.<sup>65</sup> Darhaqiqat, zamonaviy sharoitda suv masalalari qurolli raqobat emas, balki huquqiy hamkorlik va institutsional boshqaruv orqali hal etilishi kerak. Shuning uchun transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishning xalqaro-huquqiy jihatlari ekologik xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va tinchlikni ta’minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishning huquqiy asoslari bir necha asrlar davomida xalqaro odat huquqi ko’rinishida bo’lgan. Keyinchalik bu masala xalqaro huquqning rivojlanib borishi fonida universal konvensiyalarda ham o’z aksini topa boshladi. Xususan, **1997-yildagi BMTning “Xalqaro suv oqimlaridan navigatsiyadan tashqari maqsadlarda foydalanish huquqi to’g’risida”gi Konvensiyasi** adolatli va oqilona foydalanish, sezilarli zarar yetkazmaslik, ma’lumot almashish, oldindan xabardor etish va hamkorlik tamoyillarini xalqaro huquqda mustahkamlab qo’ydi. Bundan tashqari, **1992-yildagi Helsinki Konvensiyasi** transchegaraviy suvlar va xalqaro ko’llarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanishning institutsional mexanizmlarini belgilaydi. Ushbu xalqaro hujjatlarda transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishda davlatlarning huquq va majburiyatlari o’z aksini topdi.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari hayotida ham transchegaraviy daryolarning ahamiyati juda muhim bo’lib, ushbu mintaqada asosan sug’orma dehqonchilik, gidroenergetika, iqtisodiyot va aholining suvga bo’lgan ehtiyoji asosan daryolarning suv resurslari bilan ta’minlanadi. Ushbu daryolarning mintaqada strategik ahamiyati juda yuqori bo’lib, davlatlarning iqtisodiyoti va energiya resurslarining katta qismi aynan Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik transchegaraviy daryolar hissasiga to’g’ri keladi. Odatda ushbu daryolar suvidan foydalanishda yuqori oqim davlatlari energetika manfaatlarini, quyi oqim davlatlari esa irrigatsiya ehtiyojlarini ilgari suradi. Shu sababli suvdan foydalanish faqat resurs taqsimoti masalasi emas, balki mintaqaviy barqarorlik masalasidir. **1992-yilda tuzilgan Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv komissiyasi (ICWC)** ushbu ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq iqlim o’zgarishi, muzliklarning qisqarishi va suvga talabning ortishi mavjud mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Xalqaro sud amaliyoti ham mazkur tamoyillarni mustahkamlab kelmoqda. **Gabcikovo-Nagymaros (Vengriya va Slovakiya, 1997)** ishida Xalqaro sud transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda ekologik manfaatlar, barqaror rivojlanish va hamkorlik tamoyillari e’tiborga olinishi kerakligini ta’kidlaydi. Sud suv obyektlaridan foydalanishda bir tomonlama harakatlar emas, balki muzokara va

<sup>65</sup> Wouters P., *International Law and Freshwater*, London, 2013, p. 41

o‘zaro kelishuv ustuvor ekanini qayd etdi. Ushbu qaror xalqaro suv huquqining rivojlanishida muhim amaliyot vazifasini bajarib kelmoqda.

Transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish sohasida xalqaro huquqning shakllangan tamoyillari mavjud bo‘lishiga qaramay, amaliyotda ko‘plab murakkab va tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, suv resurslariga talabning ortishi, iqlim o‘zgarishi, demografik bosim va davlatlar manfaatlarining turlicha bo‘lishi mavjud huquqiy mexanizmlarning yetarliligini shubha ostiga qo‘ymoqda.

**Birinchi**dan, adolatli va oqilona foydalanish tamoyilining amaliyotda turlicha talqin qilinishi. 1997-yilgi BMT Konvensiyasida mustahkamlangan adolatli va oqilona foydalanish prinsipi xalqaro suv huquqining markaziy qoidasi hisoblanadi. Biroq ushbu tamoyilning mazmuni universal mezonlarga ega bo‘lsada, uni amalda qo‘llashda davlatlar turlicha yondashuvni ilgari suradi. Yuqori oqimda joylashgan davlatlar ko‘pincha suv resurslarini milliy taraqqiyot, energetika xavfsizligi va sanoat ehtiyojlari nuqtayi nazaridan baholaydi. Quyi oqimdagi davlatlar esa tarixiy foydalanish, qishloq xo‘jaligi sug‘orishi, ekologik barqarorlik va aholi suv ta‘minoti omillariga urg‘u beradi. Natijada “adolatli foydalanish” tushunchasi bir xil norma bo‘lsa-da, turli manfaatlar asosida turlicha talqin qilinadi. Mazkur muammo Nil daryosi, Hind havzasi hamda Markaziy Osiyodagi Amudaryo va Sirdaryo tizimlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, yuqori oqim davlatlari gidroenergetik inshootlar qurish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishni qonuniy rivojlanish huquqi deb baholaydi. Biroq quyi oqim davlatlari suv rejimining o‘zgarishi natijasida qishloq xo‘jaligi hosildorligi kamayishi, sho‘rlanish kuchayishi va ekologik zarar kelib chiqishini ta‘kidlaydi. Shunday qilib, bir davlat uchun taraqqiyot vositasi bo‘lgan loyiha boshqa davlat uchun iqtisodiy xavf manbai bo‘lishi mumkin. Muammo shundaki, adolatli foydalanish mezonlari qat‘iy belgilanib olinishi, mohiyatan chegarasi aniqlanib olinishi lozim. Aholi soni, tabiiy sharoit, iqtisodiy ehtiyoj, ekologik holat, alternativ manbalar mavjudligi kabi omillar har bir daryo havzasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

**Ikkinchi**dan, monitoring, ma‘lumot almashinuvi va ijro mexanizmlarining yetarli emasligi. Transchegaraviy daryolarni samarali boshqarish va ularning suvidan foydalanish uchun faqat umumiy prinsiplarning mavjudligi yetarli emas. Suv hajmi, mavsumiy oqim, muzliklar holati, suv sifati, ifloslanish darajasi, yangi inshootlar qurilishi bo‘yicha muntazam va ishonchli ma‘lumot almashinuvi zarur. Afsuski, ko‘plab mintaqalarda aynan monitoring tizimlari va ma‘lumot almashish mexanizmlari yetarli darajada ishlamaydi. Natijada bir davlatning suvdan foydalanishdagi ishtiroki, loyihalari ikkinchi davlatning iqtisodiyotini va suvga bo‘lgan ehtiyojlarini xavf ostida qoldirishi mumkin. Masalan, ayrim havzalarda gidrologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar yopiq saqlanadi yoki kechikib taqdim etiladi. Bu esa suv taqsimoti bo‘yicha muzokaralarda ishonch

inqirozini yuzaga keltiradi. Xususan, qurg‘oqchilik davrida qaysi davlat qancha suv olgani yoki qancha suv zaxirasi mavjudligi bo‘yicha kelishmovchiliklar tez-tez uchraydi. Masalaning yana bir muhim jihati shuki, ijro mexanizmlarining zaifligidir. Ko‘plab xalqaro bitimlar xalqaro suv huquqini va umumiy qoidalarni tan olgan bo‘lsada, ularni buzganlik uchun samarali sanksiya, majburiy arbitraj yoki tezkor nizolarni hal etish tizimi mavjud emas. Natijada davlatlardan biri majburiyatlarni bajarmasa, boshqa tomonning huquqiy himoya vositalari cheklangan bo‘lib qoladi. Bu esa xalqaro suv huquqining amaliy samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi ushbu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Muzliklarning qisqarishi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi va ekstremal qurg‘oqchiliklar sharoitida eski statistik ma‘lumotlar yetarli bo‘lmay qolmoqda. Demak, monitoring tizimlari statik emas, balki real vaqt rejimida ishlaydigan zamonaviy raqamli mexanizmlarga aylanishi lozim.

Transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishning xalqaro huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha bir nechta takliflarni ko‘rib chiqishimiz mumkin. **Birinchi taklif sifatida** daryo bo‘yida joylashgan davlatlar o‘rtasida qo‘shma boshqaruv tizimini kuchaytirish orqali transchegaraviy daryolar bo‘yicha eng samarali model daryoni siyosiy chegaralar emas, balki yagona ekologik-hududiy tizim sifatida boshqarishdir. Shu sababli har bir yirik transchegaraviy daryolar havzasida vakolatli, doimiy va professional qo‘shma komissiyalar faoliyatini kuchaytirish zarur. Bunday organlar faqat maslahat beruvchi tuzilma bo‘lib qolmasdan, ma‘lumot yig‘ish, suv taqsimoti bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, favqulodda vaziyatlarda koordinatsiya qilish va nizolarni dastlabki bosqichda yumshatish vakolatiga ega bo‘lishi kerak. Markaziy Osiyo mintaqasi uchun bu ayniqsa muhimdir. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida mavjud mintaqaviy institutlarni modernizatsiya qilish, ularga mustaqil ekspertiza, ilmiy tahlil va raqamli prognozlash funksiyalarini berish zarur. Qo‘shma komissiyalar tarkibiga faqat davlat vakillari emas, gidrologlar, ekologlar, iqtisodchilar va xalqaro huquqshunoslar ham jalb etilishi lozim. Bundan tashqari, qo‘shma organlar qarorlari shaffof bo‘lishi, yillik hisobotlar e‘lon qilinishi va jamoatchilikka ochiq ma‘lumotlar platformasi yaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Ikkinchi taklif sifatida**, raqamli monitoring va majburiy nizolarni hal etish mexanizmini joriy etish orqali bugungi kunda transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarish uchun sun‘iy yo‘ldosh kuzatuv, avtomatik gidropostlar, meteorologik sensorlar va yagona ma‘lumotlar bazasiga asoslangan raqamli monitoring tizimi zarur. Har bir manfaatdor davlat real vaqt rejimida suv sathi, oqim hajmi, ifloslanish ko‘rsatkichlari va zaxiralar bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lsa, asossiz da‘volar va shubhalar kamayadi. Bunday platforma xalqaro tashkilotlar ko‘magida yuritilishi mumkin. Masalan, BMT, Jahon banki yoki mintaqaviy

institutlar texnik yordam ko‘rsatishi va moliyalashtirishda ishtirok etishi mumkin. Natijada statistik ma‘lumotlar yagona usulda shakllanadi va ularning haqqoniyligi ortadi. Keyingi bosqichda nizolarni hal etishning majburiy mexanizmlarini joriy etish zarur. Ko‘plab bitimlarda muzokara asosiy usul bo‘lsada, muzokara muvaffaqiyatsiz tugaganida arbitraj, vositachilik yoki xalqaro sudga murojaat qilishning aniq tartibi ko‘rsatilishi lozim. Bu davlatlarni majburiyatlarga jiddiyroq yondashishga undaydi. Huquqiy javobgarlik mavjud bo‘lgan joyda kelishuvlarning real qiymati oshadi. Shuningdek, suv bo‘yicha kelishuvlarga iqlim o‘zgarishiga moslashuv moddalarini kiritilishi kerak. Chunki kelajakda suv hajmi doimiy ko‘rsatkichlardan farq qilishi mumkin. Moslashuvchan kvotalar, favqulodda rejimlar va qurg‘oqchilik protokollari bitimlarning uzoq muddatli va vaziyatga moslashuvchanligini ta‘minlaydi. Shu tariqa raqamli monitoring va majburiy huquqiy mexanizmlar transchegaraviy suv boshqaruvini yangi bosqichga olib chiqadi.

Transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish masalasi zamonaviy xalqaro huquqning eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biridir. Suv resurslari ekologik barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, energetika, sanoat va aholi farovonligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli ularni boshqarish faqat milliy yondashuv doirasida hal etilishi mumkin emas. Ikki yoki undan ortiq davlat manfaatlarini kesishadigan sharoitda xalqaro huquq adolatli va oqilona foydalanish, sezilarli zarar yetkazmaslik, hamkorlik qilish, ma‘lumot almashish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi universal tamoyillarni shakllantirdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy muammolar normaning yo‘qligida emas, balki ularning amaliy ijrosi, turlicha talqin qilinishi va zaif institutsional mexanizmlarda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, adolatli foydalanish prinsipi turli davlatlar tomonidan turli mazmunda tushuniladi, monitoring va ma‘lumot almashinuvi tizimlari esa ko‘plab mintaqalarda yetarli darajada rivojlanmagan. Iqlim o‘zgarishi, muzliklarning qisqarishi va suvga bo‘lgan talabning ortishi mavjud muammolarni yanada keskinlashtirmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. United Nations Convention on the Law of the Non-Navigational Uses of International Watercourses, adopted 21 May 1997, New York, entered into force 17 August 2014.

2. Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes, adopted 17 March 1992, Helsinki, entered into force 6 October 1996.

3. International Court of Justice. *Gabčíkovo–Nagymaros Project (Hungary/Slovakia)*, Judgment, I.C.J. Reports, 25 September 1997.

4. Indus Waters Treaty between India and Pakistan, signed 19 September 1960, Karachi.
5. McCaffrey, Stephen C. *The Law of International Watercourses*. 3rd ed. Oxford: Oxford University Press, 2019.
6. Wouters, Patricia. *International Law and Freshwater*. London: Routledge, 2013.
7. Rahaman, M.M. “Principles of Transboundary Water Resources Management and Water-Related Agreements in Central Asia.” *International Journal of Water Resources Development*, Vol. 28, No. 3, 2012, pp. 475–491.
8. Ziganshina, Dinara. “International Water Law in Central Asia: Commitments, Compliance and Beyond.” *Journal of Water Law*, Vol. 23, No. 2–3, 2015, pp. 96–107.
9. O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi. 6 may 1993-yil (amaldagi tahriri bilan).
10. Interstate Commission for Water Coordination of Central Asia (ICWC). *Official Reports and Annual Bulletins*, Tashkent, various years.